# SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences

Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

10-son (5-jild)

2025

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V5I10Y2025

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

## *№ 10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**TOSHKENT-2025**

**BOSH MUHARRIR:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**TAHRIR HAY’ATI:**

*07.00.00- TARIX FANLARI:*

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahammatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo oʻgʻli – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar boʻlimi.

*08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:*

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod Oʻktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b,;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent,;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*09.00.00- FALSAFA FANLARI:*

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Joʻraboy – falsafa fanlari doktori, professor;

Gʻaybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Moʻmin – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Oʻroqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

*10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:*

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Koʻchimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov Gʻaybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Togʻayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

*12.00.00- YURIDIK FANLAR:*

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat Gʻaybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Joʻrayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom oʻgʻli — yuridik fanlar boʻyicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

*13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:*

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD).

*19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:*

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport boʻyicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

*22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:*

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Poʻlatovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, Oʻzbekiston xalqaro islom akademiyasi.

*23.00.00- SIYOSIY FANLAR*

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Boʻtayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, Oʻzbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

**OAK Ro‘yxati**

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo‘yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro‘yxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog‘och ko‘chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bog‘lanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).

IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI
5-jild, 10-son (oktyabr, 2025). - 538 bet.

**MUNDARIJA**

## 07.00.00 – TARIX FANLARI

*Jahongirov Burxon*
O'ZBEKISTON VA BUYUK BRITANIYA MUNOSABATLARI ........ 13-18

*Kenjayev Sardor Nurmurod o'g'li*
AMIR TEMUR DAVRIDA MINTAQADA KATOLIK CHERKOVI FAOLIYATI ........ 19-23

*Atamuratova Dilafruz Rashidovna*
XORAZM TARIXINI O'RGANISHDA "TARJIMON" GAZETASINING AHAMIYATI ........ 24-28

*Karimbayeva Salomatxon, Isxakov Bexzod Barkamalovich*
FARG'ONA VODIYSI O'ZBEKLARI MODDIY MADANIYATIGA
DOIR QARASHLAR TAHLILI ........ 29-34

*Лукашова Наталья Михайловна*
ИСТОРИЯ ТАШКЕНТА 30-Х ГОДОВ XVIII - ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЫ XIX ВЕКА,
ПРЕДСТАВЛЕННАЯ В РУССКИХ ИСТОЧНИКАХ ........ 35-40

*Asadova Ra'no Baymanovna*
1991–2025-YILLARDA O'ZBEKISTON-HINDISTON DIPLOMATIK
VA TA'LIMIY HAMKORLIGINING RIVOJLANISHI:
TARIXIY ASOSLAR VA ZAMONAVIY ISTIQBOLLAR ........ 41-44

*Turdimuratov Yangiboy Allamuratovich*
ETNOIQTISODIYOT XO'JALIK FAOLIYATI SEGMENTI SIFATIDA, UNING O'ZIGA XOS
XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA SHAKLLARI ........ 45-52

*Tursunov Farrux G'ulomovich*
QASHQADARYO VOHASI TOJIKLARINING HUNARMANDCHILIK TAOMILLARIDAGI
O'ZGARISHLAR ........ 53-58

*Mullajanova Xosiyat Yazdankulovna*
XIX ASR OXIRIDA RUS GEOGRAFIK JAMIYATNING ILMIY TADQIQOTLARI
VA ULARNING XUSUSIYATLARI ........ 59-63

*Муминов Азизбек*
ИСТОРИЯ ЖИЗНИ И НАУЧНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАФАЭЛЯ ПАМПЕЛЛИ,
ПРИЕХАВШЕГО В ТУРКЕСТАН В НАЧАЛЕ XX ВЕКА ........ 64-69

*Suyarov Maxmudjon Sobirjon o'g'li*
YUNON-BAQTRIYA TANGALARIDA AYOLLAR OBRAZI – DINIY-SIYOSIY
RAMZ SIFATIDA ........ 70-74

*Tuyev Fazliddin Erkinovich*
BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARIDAGI MUZEYLARINING XORIJIY
ALOQALARI ........ 75-80

*Mamatqulov Bekzod Sherozovich, Shonazarov Elnur Abbos o'gli*
QASHQADARYO VILOYATIDA AYOLLAR BANDLIGI VA YENGIL SANOAT
TARMOQLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY ROLI:
TARIXIY TAHLIL VA NATIJALAR ........ 81-85

*Jumayeva Shohida Choriyevna*
SURXONDARYO VILOYATIDA CHORVACHILIK SOHASIDA MUTAXASSISLAR TAYYORLASH JARAYONIDAGI TARKIBIY O‘ZGARISHLAR ........ 86-90

*Azatov Allayar*
RIVOJLANGAN O‘RTA ASRLAR YOZMA MANBALARIDA QUYI AMUDARYO HAVZASI VA “XORAZM DENGIZI” TO‘G‘RISIDAGI MA’LUMOTLAR ........ 91-99

*Ro‘ziyeva Mashxura Abdimuminovna*
LO‘LILARDA O‘ZLIKNI ANGLASHNING ZAMONAVIY JIHATLARI ........ 100-105

*Orunbayev Aslı*
IKKINCHI MASHRUTIYAT JARAYONIDA JÖN TURKLAR HARAKATI VA RESPUBLIKA G‘OYALARINING SHAKLLANISHI ........ 106-113

*Matyaqbov Toyirjon Sultanbayevich*
XORAZM VOHASI NEOLIT DAVRI O‘RTA BOSQICHI KULOLCHILIGI XUSUSIDA BA’ZI MULOHAZALAR ........ 114-116

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**

*Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna, Abdujalilov Xojiakbar Abdujalil o‘g‘li*
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA XUSUSIY SEKTORNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI ........ 117-122

*Bazarova Gulnora Gulamovna*
O‘ZBEKISTON IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHANXAY HAMKORLIK TASHKILOTI.(UMUMIY MAQSADLAR YO‘LIDAGI RIVOJLANISH)........ 123-127

*Yadiyarova Shahnoza*
THE ROLE OF THE MARKETING SYSTEM IN INCREASING THE COMPETITIVENESS OF LOCAL ENTERPRISES ........ 128-135

*Нурмуродов Камолиддин Пирмаматович*
НАУЧНЫЕ ВЗГЛЯДЫ К ПОНЯТИЮ ФИНАНСОВЫЕ РЕСУРСЫ ........ 136-141

*Mamatqulova Muxlisa Mamirjanovna*
O‘RMON XO‘JALIGINI MOLIYALASHTIRISHNING BYUDJET VA BYUDJETDAN TASHQARI MANBALAR HISOBIGA MOLIYALASHTIRILISHI ........ 142-146

*Olimjonova Sexriyo Muzaffar qizi*
TURIZM INDUSTRIYASI VA MEHMONDO‘STLIK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ........ 147-150

*Anvarova Muhsinakhon Otabek kizi*
THE ROLE OF BIOSPHERE RESERVES AND NATIONAL PARKS IN TOURISM ........ 151-154

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**

*Yusupova Ranoxon Tolibjonovna*
TECHNICAL DEVELOPMENT AS AN ETHICAL-STRATEGIC RESOURCE ........ 155-158

*Adilov Zafar Yunusovich*
MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIYNING INSON KAMOLATI HAQIDAGI FALSAFIY QARASHLARI ........ 159-165

*Xo'janova Tamara Jo'raevna*
YANGI DAVR VA HOZIRGI ZAMON FALSAFASIDA AXBOROT URUSHLARINI O'RGANISHNING PARADIGMALARI ........ 166-170

*Narziyev Zubaydillo Ibodilloyevich*
AZIZIDDIN NASAFIYNING "ZUBDAT UL - HAQOYIQ" ASARI TASAVVUF FALSAFASIGA OID MUHIM MANBA ........ 171-175

*Axmedova Dilrabo Sa'dullayevna*
YOSHLARDA MA'NAVIY VA AXLOQIY QIYMATLAR: AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY O'RTASIDAGI TENGSIZLIKLAR VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI ........ 176-179

*Murtozayev Shahobiddin Baxriddinovich*
UMAR SUXRAVARDIYNING "AVORIF UL-MAORIF" ASARINING IJTIMOIY-AXLOQIY TAHLILI ........ 180-185

*Shamsutdinova Nigina Karimovna*
ABU ALI IBN SINO IRFONIY QARASHLARI: «TA'BIRI MANZIL» ASARI MISOLIDA ........ 186-190

*Pardayeva Marhabo Davlatovna*
"ODAMIYLIK" TUSHUNCHASINING ZAMONAVIY KONTEKSTDA TRANSFORMATSIYASI ........ 191-197

*Aripova Zulfiyaxon Solijonovna*
SHARQ FALSAFASIDA IJTIMOIY ADOLAT TAMOYILLARI: FOROBIYNING FALSAFIY MEROSI MISOLIDA ........ 198-203

*Muxtorova Tutixon*
ZAMONAVIY DUNYODA YOSHLARNING MA'NAVIY-RUHIY BARQARORLIGINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MASALALARI ........ 204-211

*Xakimov Abdulboqi*
YOSHLARDA MANTIQIY VA TANQIDIY FIKRLASH QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA FALSAFANING AHAMIYATI ........ 212-216

*Sardorbek Jabbarov Buron o'g'li, Mirzakhmedov Abdurashid Mamasidiqovich*
ISTE'MOLCHILIK JAMIYATIDA AHOLINING ISTE'MOL ME'YORI ........ 217-224

*Taniqulov Jonibek Ashirkulovich*
TA'LIM MADANIYATI VA UNING FALSAFIY FUNDAMENTLARI: KONSEPTUAL YONDASHUVLAR, GNOSEOLOGIK ILDIZLAR VA AKSIOLOGIK TAHLIL ........ 225-229

*Бердалиева Севара Дамировна*
СПОСОБЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТРУДОВ АЛЛАМА ЮСУФА ХОСА ХАДЖИБА В РЕШЕНИИ СОВРЕМЕННЫХ ЭТИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ ........ 230-234

*Хушбоков Ойбек Уралович*
СОВРЕМЕННАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОНЦЕПТОСФЕРА УЧИТЕЛЯ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ ........ 235-239

*Fayziyev Xurshid Jumayevich*
VOLTER DAVRIDA FRANSIYADA MA'NAVIY MIHITNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 240-244

*Muxiddinova Xakimaxon G'ulomovna*
EKOLOGIK TAFAKKUR VA YASHIL IQTISODIYOT – UCHINCHI RENESSANSNING YANGI FALSAFIY PARADIGMASI SIFATIDA ........ 245-250

*Zokirov Mirzo*
MAMLAKATLARNING TANAZZUL VA TARAQQIYOTINI BELGILOVCHI IJTIMOIY-FALSAFIY OMILLAR ........ 251-255

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**

*Jo‘rayev Nabi Narziyevich*
O‘ZBEK MILLIY LINGVOMADANIYATINING QADIMIYLIK VA ZAMONAVIYLIK ASOSLARI ........ 256-262

*Eshtuhtarova Bibigul Bektoshevna*
PRAGMATICS OF GENDERED COMMUNICATION IN ENGLISH ........ 263-267

*Zaripova Matluba Kulfidinovna*
GRAMMATICAL MEANS OF EXPRESSING PEJORATION IN UZBEK AND RUSSIAN ........ 268-271

*Sayipova Dilobar Raximovna*
ADABIYOT FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIM TOPSHIRIQLARINING AHAMIYATI ........ 272-275

*Soibova Gulchiroy Bakhtiyorjon qizi*
TRANSLATION ISSUES IN THE GENERAL AND SPECIFIC OCCURRENCE OF THE HORSE IN ENGLISH AND UZBEK CULTURES ........ 276-281

*Zokirova Shaxzoda Nodirjon qizi*
TELEVISION AS A RHETORICAL ARENA: THE MANIFESTATIONOF CLASSICAL RHETORICAL CANONS IN MODERN TV GENRES ........ 282-288

*Abdujalilova Ruxshona Abdug‘afforzoda*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KRIMINALINGVISTIK BIRLIKLARNING SHAKLLANISHINING GRAMMATIK XUSUSIYATLARI ........ 289-293

*Abduraximova Feruza Boxadirovna*
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO‘SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI ........ 294-300

*Jalolova Feruza Normurodovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK XALQ ERTAKLARINING LINGVOMADANIY XUSUSIYATLARI ........ 301-305

*Ahrorova Nigina Anvarovna*
MIFOLOGIK TASAVVURLAR MUAYYAN VOQELIK MOHIYATI ........ 306-309

*Razikov Baxtiyor Kosimovich*
MEMLAR TILIDAGI NEOLOGIZM: QOIDABUZARLIKMI YOKI INNOVATSIYAMI? O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSI MISOLIDA ........ 310-314

*Kutbiddinova Nazokatkhon Dovudkhon qizi*
GENDER-BASED DIFFERENCES IN THE USE OF PHRASEOLOGISMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES ........ 315-319

*Nazarova Sabrina Zafarjon qizi*
YOZMA NUTQDAGI GRAMMATIK BUZILISHLAR: AGRAMMATIK DISGRAFIYANING LINGVISTIK VA NEYROPSIXOLOGIK ASOSLARI ........ 320-323

*Ёлдашалиева Мадина Зиёджон кызы*
ЖЕНСКОЕ СЧАСТЬЕ КАК ПРИНЯТИЕ ЛЮБВИ И ЗАЩИТЫ В ПОВЕСТИ ЧИНГИЗА АЙТМАТОВА «ТОПОЛЁК МОЙ В КРАСНОЙ КОСЫНКЕ» ........ 324-326

## 12.00.00 – YURIDIK FANLAR

*Salimova Diyoraxon Baxtiyorjon qizi*
HAVO TRANSPORTIDA TASHUVCHI JAVOBGARLIGINING NAZARIY DOKTRINASI ........ 327-333

*Abdullayev Rustam Kaxramanovich*
JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA RAQAMLI DAKTILOSKOPIYANING IMKONIYATLARI ........ 334-339

*Давронов Атобек Равшанович*
ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ КАК ВСПОМОГАТЕЛЬНЫЙ СУБЪЕКТ УГОЛОВНОГО ПРОЦЕССА: ДОКТРИНАЛЬНЫЕ ПОДХОДЫ ........ 340-349

*Eshturdiyeva Farangiz Baxodir qizi*
O‘ZBEKISTONDA HUQUQ IJODKORLIGI SIYOSATI: STRATEGIK PRINSIPLAR VA ULARGA YANGICHA NAZARIY YONDASHUV ........ 350-355

*Исламов Самандар Олимжон угли*
ПРАВАВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ КРИПТО-АКТИВОВ В СТРАНАХ СНГ: АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ РЕШЕНИЯ ........ 356-363

*Uteniyazov Keulimjay Kuanыshbayevich*
AYBLOV TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING JINOYAT-PROTSESSUAL HUQUQ TIZIMIDAGI O‘RNI ........ 364-370

*Ikramov Abrorbek Kamoliddinovich*
ASOSSIZ BOYISH NATIJASIDA VUJUDGA KELGAN MAJBURIYATLAR ........ 371-375

*Muxitdinova Firuza, Saidakamal Mamasoliyev*
ZAMONAVIY AXBOROT MAKONIDA INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI ........ 376-380

*Бахриддинова Бехруза Бахриддиновна*
ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВНЫХ ПОДХОДОВ К СОВРЕМЕННОМУ ПОНИМАНИЮ ИНФОРМАЦИОННОГО ОБЩЕСТВА ........ 381-388

*Axmedov Dilshod Baxramovich*
MA’MURIY SUDLARDA PROKUROR ISHTIROKINI SAMARALI TA’MINLASHNING AMALIY MASALALARI ........ 389-394

*Shodmonov Farrux Fayzullo o‘g‘li*
DAVLAT BOSHQARUVIDA TRANSCHEGARAVIY SUVLARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALALARI ........ 395-401

*Bozorov Ulug‘bek*
TEXNIKA YO‘NALISHI OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA TALABALARNI KASBIY-HUQUQIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH MODELI ........ 402-407

*Nurullayeva Djamilya Sayfiyevna*
O‘ZBEKISTONDA SPORT TASHKILOTLARINING HUQUQIY MAQOMI VA ULARNING MOLIYAVIY MUSTAQILLIGI ........ 408-413

*Reymbayeva Guldaulet Kurbanbayevna*
TURIZM XIZMATI SOHASIDA ISTE’MOLCHI HUQUQLARINI HUQUQIY TA’MINLASH MUAMMOLARI VA ISTIQBOLLARI ........ 414-420

*Shirinqulov Baxtiyor Iftixor o‘g‘li*
MEHNATNI MUHOFAZA QILISH QOIDALARINI BUZISH JINOYATLARINI TERGOV QILISHDA KO‘ZDAN KECHIRISH TERGOV HARAKATINI O‘TKAZISHNING TAKTIK XUSUSIYATLARI ........ 421-428

*Salomov Xumoyun*
OMMAVIY-HUQUQIY MUNOSABATLARDA QONUNIYLIKNI TA’MINLASHDA PROKURATURA ORGANLARINING AHAMIYATI ........ 429-433

*Kakhramonova Aziza*
THE PRINCIPLE OF INTERNATIONAL LAW ENSURING THE RIGHT OF A CHILD TO LIFE, SURVIVAL AND DEVELOPMENT AND ITS ESSENCE ........ 434-437

*Xoliqova Gavhar Ramazon qizi*
XALQARO XUSUSIY HUQUQDA ALIMENT MAJBURIYATLARINI TARTIBGA SOLISHNING KOLLIZION MASALALARI ........ 438-444

*Sharipov Firdavs Xolnazarovich*
OLIY MAJLIS QONUNCHILIK PALATASINING QONUN IJODKORLIGI FAOLIYATIDA AYRIM YORDAMCHI TUZILMALARNING ISHTIROKI ........ 445-450

*Nugmanov Nugman Abdullayevich, Nizomova Nastarin Vladimirovna*
PARTICIPATION OF WOMEN IN SHAPING THE DIGITAL LEGAL SPACE ........ 451-456

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**

*Djamaldinova Shaxlo Obloberdiyevna*
TIBBIYOT OLIYGOHI TALABALARINI EMOTSIONAL VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA YO‘NALTIRILGAN METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 457-462

*Nabiullin Rishat Xismatullovich, Raxmonov Azizbek Abdullajonovich*
XORIJDA KORPORATIV SPORTNI RIVOJLANTIRISH VA O‘ZBEKISTONDA XORIJ TAJRIBASINI JORIY ETISH ........ 463-468

*Xudayberganov Otabek Erkinovich*
BASKETBOL VOSITALARI VA MUAMMOLI O‘QITISH USULLARI YORDAMIDA JISMONIY MADANIYAT FAKULTET TALABALARINING KASBIY KO‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH ........ 469-474

*Nishonova Dilafruz*
O‘QUVCHILARDA IQTISODIY MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI ........ 475-480

*Davletyarova Laylo Baxodirovna*
YENGIL ATLETIKADA TRENERLIK FALSAFASINI RIVOJLANISHI ........ 481-486

*Madrahimov Alisher Maxammadibroximovich*
O‘RTA MAKTAB O‘QUVCHILARI O‘RTASIDA ZO‘RAVONLIK PROFILAKTIKASINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ........ 487-493

*Шавилова Наталья Сергеевна*
ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА: ВЛИЯНИЕ НА МОТИВАЦИЮ И КАЧЕСТВО ОБУЧЕНИЯ ........ 494-500

*Nosirov Murod Zakirovich, Jonibekova Sevara Dilmurod qizi*
FIZIK JARAYONLARNI KOMPYUTERDA MODELLASHTIRISH ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 501-508

*Mattiyeva Feruza Begmatdulabovna*
ZAMONAVIY LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TARJIMA DARSLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ........ 509-515

*Qarshiboyeva Maftuna Komiljon qizi*
RAQAMLI MUHITDA O‘SMIR YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK EHTIYOJLARINING SHAKLLANISHI ........ 516-519

*Usmonqulov Jo‘rabek Erkin o‘g‘li, Kubayiva Sarvinoz Asrorbek qizi*
TALABALARNING KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL TA’LIMNING O‘RNI VA AHAMIYATI ........ 520-525

*Xayitova Dilovar Ismat qizi*
STEAM INTEGRATSIYASI ORQALI AXBOROT-PROTSESSUAL TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHNING SAMARALI YO‘LLARI ........ 526-532

*Soliyeva Muqaddas Nurnazarovna*
THE EFFECTIVENESS OF TASK-BASED LANGUAGE TEACHING (TBLT) IN UZBEK CLASSROOMS ........ 533-537

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari
Actual Problems of Humanities and Social Sciences
Volume 5 | Issue 10 | 2025
ISSN Online: 2181-1342

**Received:** 15 September 2025
**Accepted:** 1 October 2025
**Published:** 10 October 2025

*Article / Original Paper*

# COMPARATIVE ANALYSIS OF PERSON NOUN-FORMING AFFIXES IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

**Abdurakhimova Feruza Bokhadirovna**
Senior Lecturer, (PhD), Faculty of English Language and Literature,
Fergana State University

**Abstract.** This article presents a comparative analysis of person noun-forming affixes in Uzbek and English languages. The research examines word formation models in both languages, their structural and semantic features. Eleven active person noun-forming affix models in Uzbek and twelve models in English have been analyzed. The research findings revealed that in Uzbek, models based on nouns predominantly prevail, while in English, words are also actively formed from verbs and adjectives. Additionally, the study identified the presence of special affixes expressing gender indicators in English and specific features of prefix model participation in Uzbek. The article also compares models of other noun-forming affixes in both languages and highlights the national-cultural factors of the word formation system.

**Keywords:** word formation model, person noun, affix, suffix, comparative analysis, derivation, Uzbek language, English language, word-forming element, national-cultural factors.

# O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA OT YASOVCHI QO‘SHIMCHALARNING QIYOSIY TAHLILI

**Abduraximova Feruza Boxadirovna**
Farg‘ona davlat universiteti
Ingliz tili va adabiyoti fakulteti (PhD) katta o‘qituvchisi
E-mail: feruz.abdurakhimova818@gmail.com
ORCID ID http://orcid.org/0000-0001-5903-4211

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada o‘zbek va ingliz tillarida shaxs otlarini yasovchi qo‘shimchalarning qiyosiy tahlili berilgan. Tadqiqotda ikki tilda so‘z yasalish modellari, ularning strukturaviy va semantik xususiyatlari o‘rganilgan. O‘zbek tilida 11 ta, ingliz tilida esa 12 ta faol shaxs oti yasovchi qo‘shimchalar modellari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida o‘zbek tilida asosan ot so‘z turkumiga asoslangan modellar ustunligi, ingliz tilida esa fe’l va sifatlardan ham faol so‘z yasalishi aniqlangan. Shuningdek, ingliz tilida gender ko‘rsatkichlarini ifodalovchi maxsus qo‘shimchalar mavjudligi va o‘zbek tilida prefiksli model ishtirokining o‘ziga xos jihatlari ko‘rsatilgan. Maqolada har ikki tilda ot yasovchi boshqa qo‘shimchalarning modellari ham taqqoslanib, tillardagi so‘z yasalish tizimining milliy-madaniy omillari yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** so‘z yasalish modeli, shaxs oti, qo‘shimcha, affiks, qiyosiy tahlil, derivatsiya, o‘zbek tili, ingliz tili, so‘z yasovchi, milliy-madaniy omillar.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I10Y2025N51

O‘zbek tilida so‘z yasalishiga oid ishlardan A.G‘.G‘ulomov tadqiqotlarida so‘z yasash modeli termini uchraydi. Ammo olim so‘z yasash modeli terminini turli hodisalarga nisbatan ishlatadi va buni o‘zi ham ta’kidlaydi[6;15].

So‘z yasash modeli yasama so‘zning tuzilish sxemasi, bu sxema so‘z yasash qolipi. U so‘zning yasalish tarkibini tekshirishning umumlashtirilishidan tug‘ilgan: so‘zning yasalish

strukturasini aniqlash bilan umumlashtirish natijasida soʻz yasash modellari belgilanadi, bu modellar tilning soʻz yasalishi sistemasini tashkil etadi[3;12-13].

A.Hojiyev soʻz yasalish modeli iborasi soʻz yasalish sohasiga oid biror tushunchani ifoda etmaydi, – deydi. Shuningdek, u soʻzlar maʼlum yasalish modeliga ega boʻlsa ham, soʻz yasalishining tipini yuzaga keltirmaydi:

1) yasalish modeli bir xil boʻlgan soʻzlar struktura va maʼno tomonidan oʻxshash boʻladi;

2) soʻz yasalish modelining unumli yoki unumsiz boʻlishi kabi gaplar soʻz yasalishi sohasiga oid biron-bir hodisaning mohiyatini aks ettira olmaydi.

A.Hojiyev "soʻz yasalish modeli" iborasi soʻz yasalishi hodisasi bilan bogʻliq tushunchaning mohiyatini toʻgʻri va toʻla aks ettira olmasligini aytadi[4;18-20].

Har bir tilning yasama soʻzlari shu tildagi soʻz yasash modellari asosida yaratiladi.

Faoliyat bajaruvchi shaxs otlarining yasalish modellari:

Ot (oʻzak — negiz) + chi – ishchi, temirchi, haydovchi, konchi, temiryoʻlchi, quruvchi, sotuvchi, suvoqchi

Ot + soz – soatsoz [3;12].

Soʻz yasash modellari, umuman, hosil qilish, yaratish sxemasi – andozasi maʼnosidagi umumlashgan, abstrakt hodisadir. Shunga koʻra, uning tarkibidagi elementlar ham turli tusga kiradi:

M: feʼl +(-i) q (suvoq, chopiq).

Oʻzbek tilida qoʻshma soʻzlarda ot+ot, sifat + ot, son + ot kabi modellar mavjud.

Soʻzlarning yasalishidagi asosiy tasnif birligi bu soʻz yasalish modeli yoki soʻz yasalish tipidir. Turli xil qarash, fikr, taʼriflar, terminologiyadagi baʼzi farqlarga qaramay, ushbu tasnif mohiyati asosan bir xil. Zamonaviy tilshunoslikda soʻz yasash modeli Y.S.Kubryakova taʼrifiga koʻra, yasalmaning tarkibiy qismlarining tabiatini va ularni joylashtirish tartibini hisobga oluvchi soʻzlar yasalishining yagona sxemasidir. Soʻz yasalish modeli – bir xil turdagi yasalishning eng umumiy formulasi boʻlib, bu ularning tarkibiy va semantik analogidir[5;107].

Har bir yasalma asosida yangi soʻz boʻladi va bu yasalish maʼlum modelga yoki yasalish usuli orqali yuzaga chiqadi. Bundan kelib chiqadiki, har bir yasalishda ikki va undan ortiq elementlarning munosabati mavjud boʻladi: yasashga asos boʻlgan soʻz va yasalib chiqqan soʻz. Yasalmadagi bu ikki element tashqi va ichki tomonlardan oʻzaro munosabatda boʻladi[3;13]. Biz oʻz ishimizda ushbu modellarning milliy-madaniy tomonlarini yoritishni maqsad qilib olganmiz.

Har qanday yasama soʻz soʻz yasalish asosiga soʻz yasovchi qoʻshish yoʻli bilan hosil qilinadi. Bundan kelib chiqadiki, oʻzbek tilida soʻz yasalishining umumiy modeli "soʻz yasalish asosi" va "soʻz yasovchi" dan iborat boʻladi. Soʻz yasalish asosi va soʻz yasovchi material jihatdan turlicha boʻlishi mumkin. Ammo har bir yasama soʻzning, qanday soʻzdan, soʻz yasovchining qanday affiks yoki yordamchi soʻzdan boʻlishiga qarab, ularning har birini alohida model deb qarash kerak emas, bunga ehtiyoj ham yoʻq, deydi A.Hojiyev[6;170].

Biz oʻz ishimizda soʻzlarning yasalish modellarini mustaqil soʻz turkumlari ot, sifat, feʼl doirasida guruhlarga ajratgan holda, ikki tilda qiyoslab, ularning milliy-madaniy omillarini tahlil qilishga harakat qilamiz.

Oʻzbek tilida shaxs oti yasovchi qoʻshimchalar:

OT + yasovchi qoʻshimcha = OT modeliga ega.

Shaxs otlari yasovchi qoʻshimchalar: *-chi, -shunos, -kor, -vachcha, -soz, -furush, -paz, -xoʻr, -boz, -xon, -navis, -parast, -goʻy, -dosh.*

**Oʻzbek tilida shaxs oti yasovchi qoʻshimchalar**

| № | Model | Misol |
|---|---|---|
| 1 | OT + -chi = OT | *Oʻqituvchi, qoʻshiqchi, tennischi*<br>Kasb-hunar, mutaxassislik, mashgʻulot bilan shugʻullanuvchi shaxs |
| 2 | FE'L + -vchi = OT | *Ayblovchi, qoralovchi, quruvchi, toʻldiruvchi, tuslovchi*<br>Fe'ldan anglashilgan harakatga aloqador boʻlgan, uni bajaruvchi, shu harakatga tortiluvchi shaxs otlarini hamda turli sohaga oid terminlarni yasaydi. |
| 3 | OT + -kor = OT | *Paxtakor, binokor, ijodkor, xizmatkor*<br>Yasovchi asosdan anglashilgan narsani yaratuvchi shaxs otlarini yasaydi. |
| 4 | OT + -soz = OT | *Soatsoz, kemasoz, vagonsoz*<br>Asosdan anglashilgan narsani yaratuvchi, ishlab chiqaruvchi otlarni yasaydi. |
| 5 | OT + -shunos = OT | *Oʻlkashunos, tilshunos, adabiyotshunos*<br>Soha mutaxassisini, shunga oid ilm bilan shugʻullanuvchi shaxs otlarini yasaydi. |
| 6 | OT + -xon = OT | *Gazetxon, kitobxon*<br>Asosdan anglashilgan narsani doimiy oʻquvchi shaxs otlarini yasaydi. |
| 7 | OT + -navis = OT | *Hikoyanavis, masalnavis*<br>Asosdan anglashilgan narsani yozish bilan shugʻullanuvchi shaxs otlarini yasaydi. |
| 8 | OT + -dosh = OT | *Sinfdosh, guruhdosh, maktabdosh, quroldosh*<br>Asosdan anglashilgan narsaga bir xil aloqador, ishtiroki boʻlgan shaxs ma'nosidagi otlarni yasaydi. |
| 9 | OT + -boz = OT | *Arizaboz, va'daboz, buyruqboz, askiyaboz*<br>Asosdan anglashilgan narsa, ish-harakati bilan koʻp shugʻullanuvchi, shunga berilgan shaxsni bildiriuvchi otlarni yasaydi. |
| 10 | Ham + OT = OT | *Hamshahar, hamkasb, hamsuhbat, hamxona*<br>Asosdan anglashilgan ish, narsaga birga aloqador shaxs otlarini yasaydi. |
| 11 | OT + -parast = OT | *Amalrparast, maishatparast, shaxsiyatparast*<br>Asosdan anglashilgan narsa-hodisaga berilgan, unga ye'tiqod qiluvchi shaxs otlarini yasaydi. |

Ingliz tilida shaxs otlarini yasovchi qoʻshimchalar: *-er, -ist, -ess, -ee, -ant/-ent, -ite, -an, -eer, -ary, -ard, -ette, -ina*

**Ingliz tilida shaxs oti yasovchi qoʻshimchalar**

| № | Model | Misol |
|---|---|---|
| 1 | FE'L + -er = OT | *Baker, lecturer, driver, teacher*<br>-er qoʻshimchasi fe'l bilan birikib, shaxs otlari yasashda ishlatiladi. Bunda asosdan anglashilgan ish harakatini bajaruvchi shaxs tushuniladi, chunki bunda kasb ifodalanadi. |
| 2 | OT + -ist = OT<br>SIFAT + -ist = OT | *Atheist, feminist, realist, modernist, artist, tourist*<br>Asosdan anglashilgan e'tiqod, ish yoki kasb va oʻqishga aloqador shaxs otlarini yasash uchun ishlatiladi. |
| 3 | OT + -ess = OT<br>FE'L + -ess = OT | *Actress, duchess, lioness, princess*<br>-ess qoʻshimchasi otlarga ba'zan fe'l soʻz turkumidagi soʻzlarga qoʻshilib, ayollarni ifodalovchi kasb, millat, ijtimoiy kelib chiqish va hokazolarni ifodalash uchun ishlatiladi. Shuningdek, urgʻochi hayvonlarni ham ifodalaydi. |
| 4 | OT + -ee = OT<br>FE'L + -ee = OT<br>SIFAT + -ee = OT | *Addressee, absentee, refugee, interviewee, employee*<br>Ot, fe'l, sifat soʻz turkumidagi soʻzlarga qoʻshilib, ish harakatini bajaruvchi shaxs otlarini yasash uchun ishlatiladi. |
| 5 | FE'L + -ant/-ent = OT | *Assistant, contestant, applicant, servant*<br>Fe'l soʻz turkumiga qoʻshilib, kasbni yoki ishtirokchi shaxsni ifodalovchi otlarni yasashda ishlatiladi. |
| 6 | OT + -ite = OT | *Labourite, Baldwinite, Leninite*<br>Biror bir harakat qatnashchisi yoki tarafdorligini ifodalaydigan shaxs otlarini yasaydi. |
| 7 | OT + -an = OT | *Historian, librarian*<br>Kasb otlarini yasash uchun xizmat qiladi. |
| 8 | OT + -eer = OT | *Engineer, cannoneer, lawyer*<br>Kasb otlarini yasash uchun xizmat qiladi. |
| 9 | OT + -ary = OT<br>SIFAT + -ary = OT | *Secretary, adversary, notary, missionary*<br>Kasb, diniy yoʻnalish, ish-harakatning turi bilan shugʻullanuvchi shaxs otlarini yasaydi. |
| 10 | OT + -ard = OT<br>SIFAT + -ard = OT | *Drunkard (ichuvchi), stinkard (sassiq), dullard (jinni)*<br>Salbiy ma'nodagi shaxs otlarini yasash uchun xizmat qiladi. |
| 11 | OT + -ette = OT | *Pursette (katta styuardessa), cosmonette*<br>Ayollarni ifodalovchi shaxs otlarini yasovchi qoʻshimcha. |
| 12 | OT + -ine = OT | *Heroine, concertina*<br>Ayollarni ifodalash uchun ishlatiladigan shaxs oti yasovchi qoʻshimcha. |

Oʻzbek va ingliz tilida shaxs otlari yasalishining oʻziga xos jihatlari quyidagilar:

1. Oʻzbek tilida shaxs oti yasalishida 11 ta faol modellar tahlil qilinganda deyarli barchasida asos ot soʻz turkumiga mansub (bitta holatdan tashqari).
2. Oʻzbek tilidan farqli oʻlaroq ingliz tilida shaxslar gender koʻrsatkichini ifodalovchi maxsus qoʻshimchalar mavjud.
3. Ingliz tilida 12 ta unumli shaxs otlarini yasash modellardan tahlilga olinganda fe'l va sifat soʻz turkumlari faol ishtirok etishining guvohi boʻldik.

4. Oʻzbek tilida shaxs otlarini ifodalashda 1 ta prefiksli model ishtiroki kuzatiladi, biroq ingliz tilida bunday holat uchramadi.
5. Oʻzbek tilida shaxs oti yasovchi qoʻshimchalarning eng sermahsuli -chi qoʻshimchasidir. Ingliz tilida shaxs oti yasovchi qoʻshimchalar orasida -er qoʻshimchasi sermahsul hisoblanadi. Ammo tarjimada ingliz tilidagi affikslarning bir nechtasi -chi ma’nosiga teng kelishini kuzatish mumkin, jumladan, -er – worker, builder (ishchi, quruvchi,), librarian – kutubxonachi va boshqalar.

Ot yasovchi boshqa qoʻshimchalarni ham qiyosiy talqinda tahlil qilish mumkin.

**Oʻzbek tilida ayrim ot yasovchi qoʻshimchalarning modellari**

| № | Model | Misol |
|---|---|---|
| 1 | OT<br>SIFAT + -lik = OT | Ot soʻz turkumidan:<br>- qarindoshlik, tugʻishganlikka oid otlarni yasaydi: *onalik, otalik, oʻgʻillik*<br>- hayotning ma’lum bir davrini bildiruvchi otlarni yasaydi: *bolalik, oʻsmirlik, kelinlik*<br>- kasb, amal — unvon yoki ish faoliyat egasini bildiruvchi otlarni yasaydi: *mudirlik, oʻqituvchilik, suvchilik, savdogarlik*<br>- asosdan anglashilgan narsa bilan bogʻliq boʻlgan ish harakati bajarish jarayoni: *kitobxonlik, oshxoʻrlik, kitobxonlik*<br>- kasb egasini bildiruvchi soʻzlar: *zargarchilik*<br>- asosdan anglashilgan narsa ishgʻol etgan hududni bildiruvchi otlarni yasaydi: *qumlik, muzlik, adrlik, botqoqlik*<br>— yer sathining yasovchi asosdan anglashilgan qismini bildiruvchi ot yasaydi: *tepalik, jarlik* |
| | | Sifat va ravishlardan:<br>- Belgi oti yasaydi: *mardlik, saxiylik, tezlik*<br>- asosdan anglashilgan belgining holatini bildiradi: *shodlik, tinchlik, erkinlik, toʻqlik*<br>- shaxsning xarakter-xususiyati, qiliq, xatti-harakatini bildiradi: *jasurlik, kamtarlik, ahillik, oʻjarlik, hovliqmalik* |
| 2 | FE’L + -v = OT | *Saylov, qishlov, tergov, xayrlashuv, yozuv*<br>fe’ldan anglashilgan harakatga doir ish, holat va jarayonni bildiruvchi otlarni yasaydi |
| 3 | FE’L + -(i)sh = OT | *Burilish, oʻzgarish, tekshirish, yuksalish*<br>- fe’ldan anglashilgan harakatga oid ish, jarayon va holatni bildiruvchi otlarni yasaydi.<br>*dunyoqarash, oʻqish kitobi, sezish organlari*<br>- rus tilidan soʻzlarni oʻzlashtirishda kalkalash yoʻli bilan soʻzlarni yasaydi. |
| 4 | OT + -xona = OT | *Toʻyxona, elchixona, darsxona, kutubxona*<br>-xona affiksoidi asosdan anglashilgan ish harakatga moʻljallangan obyektni bildiruvchi otlarni yasaydi. |
| 5 | OT + -noma = OT | *Murojaatnoma, taklifnoma, talabnoma*<br>-noma affiksoidi asosdan anglashilgan narsani ifodalovchi tekst yoki xatni ifodalovchi otlarni yasaydi. |

**Ingliz tilida ayrim ot yasovchi qoʻshimchalarning modellari**

| № | Model | Misol |
|---|---|---|
| 1 | FE’L + -ation (-tion, -ion, -fication) = OT | *Realization, notification, production, operation*<br>Fe’l soʻz turkumidan anglashilgan holat yoki jarayonning ot soʻz turkumida ifodalanishi. |
| 2 | OT + -dom = OT<br>SIFAT + -dom = OT | *Wisedom, kingdom, freedom, chiefdom*<br>Asosdan anglashilgan tajribani ifodalovchi hamda jamiyatdagi holatni, bir guruh insonlarning qiziqishi boʻyicha jamlanmasini ifodalovchi otlarni yasaydi. |
| 3 | OT+ -ics = OT<br>FE’L + -ics = OT | *Linguistics, politics, physics, economics*<br>Biror bir mavzu yoki oʻrganish sohasini ifoda etuvchi otlarni yasaydi. |
| 4 | FE’L + -ing = OT | *Falling, building, landing, landing, lining, misgiving, understanding*<br>Fe’l soʻz turkumidan harakat, natija, joy, material, ichki holat va mavhum otlarni yasashda ishlatiladi. |
| 5 | SIFAT + -ness = OT<br>PREFIKS + FE’L (II) + -ness = OT<br>SOʻZ BIRIKMASI + -ness = OT<br>COH + -ness = OT | *Awareness, kindness, unwantedness, half-awakeness, oneness*<br>Vaziyat, sifat, holat, belgi otlarini yasash uchun xizmat qiladi.<br>Shuningdek, -*ness* mavhum ot yasovchi qoʻshimcha boʻlib ishlatiladi. Mavhum otlarni yasashda, *-al, -hood, -ship* qoʻshimchalari ham –*ness* qoʻshimchasi kabi qoʻllaniladi. Bu qoʻshimchalarning oʻziga xos xususiyati shundan iboratki, ular oʻzlaridan soʻng boshqa qoʻshimcha qabul qilmaydi. |

1. Oʻzbek va ingliz tillarida ot soʻz turkumining yasalishi faol derivatsion jarayonlardan biri ekanligini aytib oʻtish joiz.

2. Har ikki tilda deyarli barcha soʻz turkumlaridan ot soʻz turkumidagi soʻzlar faol yasalishining guvohi boʻldik va oʻzbek tilida 5 ta, ingliz tilida ham 5 ta ot yasovchi qoʻshimchalarning modellarini tahlil qildik. Diqqatga sazovor tomoni shundaki, ingliz tilida soʻz birikmasidan ham ot soʻz turkumidagi soʻzlar yasaladi.

3. Shuningdek, fe’lning ikkinchi (past – oʻtgan) zamon shakliga prefiks qoʻshib ot soʻz turkumidagi soʻzlar yasalishi ham kuzatiladi. Oʻzbek tilida bunday murakkab model ot soʻz turkumi doirasida uchramaydi. Ingliz tilida derevatsion soʻzlar yasalishi oʻzbek tiliga nisbatan erkinroqdir. Buyerless *goods – tovarlar* (xaridorgirmas) yoki *breathable air – havo* (nafas olsa boʻladigan)[2;35]. Aslida bu misollarda ikkinchi komponent tarjima qilinyapti, ammo birinchi yasalma soʻzlar denotativ ma’noga qoʻshimcha ottenka berib, okkazional soʻzlarni yasab kelmoqda. Bu ham ingliz tilining oʻziga xos xususiyatlaridan biridir.

Oʻzbek va ingliz tillarida mavhum ot yasaydigan affiksli modelni koʻraylik, bunda oʻzbek tilida *-lik, -chilik, -v, -sh* qoʻshimchalari ot, sifat, ravishga qoʻshilib, turli ma’nodagi mavhum otlarni hosil qiladi. Masalan: *tinchlik, qoʻshnichilik, chorlov*. Ingliz tilida esa *-ness* qoʻshimchasidan tashqari *-al, -ship, -hood* qoʻshimchalari ham ishlatiladi. Bu qoʻshimchalar deyarli barcha soʻz turkumlari bilan ishlatiladi va ulardan soʻng soʻzlarga qoʻshimcha qabul qilinmaydi. Masalan, oʻzbek tilidagi qarindoshlik soʻzlari: *ota, ona, oʻgʻil, qiz* va hokazo. Soʻzlarga qoʻshilib, asosdan anglashilgan ma’nodan qarindoshlikni bildiruvchi otlarni yasaydi. Masalan, *onalik, otalik, qizlik, oʻgʻillik.* Shunday yasalish xuddi shu modelda ingliz tilida ham mavjud:

*motherhood – onalik*, *fatherhood – otalik:* Bunda oʻzbek tilida -*lik,* ingliz tilida esa –*hood* qoʻshimchalari ishlatilmoqda, ammo doʻstlik soʻzi ingliz tilda *friendship* soʻzi bilan ifodalanadi. Bunda oʻzbek tilida *ot + -lik*, ingliz tilida *ot + -ship* modeli asosida soʻzlar yasalmoqda, asos bir xil, lekin qoʻshimchalar oʻzbek tilida qarindoshlikni bildiruvchi otlar turini yasash uchun ham, boshqa maʼnoli mavhum otlarni yasashda ham -*lik* ishlatilmoqda, ingliz tilida qarindoshlikni koʻrsatish uchun -*hood* va turli maʼnodagi mavhum otlarni yasashda -*ship* ishlatilmoqda. Bu esa turli tizimli tillarda otlarning yasalish tizimi turlicha ekanligidan dalolat beradi.

Ingliz tilida kichraytirish qoʻshimchasi (-*let va -kin)* oʻzbek tiliga nisbatan kam qoʻllaniladi. Masalan, *bolgʻa-bolgʻacha, gul- gulcha* soʻzlarini olsak, ingliz tilida bu soʻzlar *hummer va flower* soʻzlari bilan ifodalanadi. Ingliz tilida kichraytirishni ifodalashda affikslardan koʻra leksik birliklar bilan ifodalash mavjud. Bunda eng koʻp qoʻllaniladigan sifatlardan biri bu *little* soʻzidir. *(little laugh -ozgina kulgi)*[2;36].

**Adabiyotlar/Литература/References:**


1. Abduraximova F.B. Turli tizimli tillarda soʻz yasalishining lingvomadaniy xususiyatlari (ingliz va oʻzbek tillari misolida) Filol. fan. b. fals. dokt. (PhD)… diss. – Tashkent, 2024 – 184 b.
2. Мешков О.Д. Словообразование современного английского языка. – М.:Наука, 1976. – 278 с.
3. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. – Тошкент: Ўзбекистон Фан, 1975. – 609 b.
4. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши. – Тошкент:Ўқитувчи, 1989. – 109 b.
5. Харитончик З.А. Лексикология английского языка. – Минск:Вышэйшая школа. 1992 – 204 b.
6. Ҳожиев А. Ўзбек тили сўз ясалиши тизими. –Тошкент: Ўқитувчи, - 2007 . – Б. 170.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## IJTIMOIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

*№ 10 (5) – 2025*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari”** elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat roʻyxatiga olingan.

**Muassis**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas’uliyati cheklangan jamiyati

**Tahririyat manzili:**

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyogʻoch koʻchasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

**Bogʻlanish uchun telefon:**

(99) 602-09-84 (telegram).